




JOURNAL OF GEOGRAPHY AND NATURAL RESOURCES

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

THE EFFECT OF HARMFUL GASES EMITTED FROM THE SAMARKAND CHEMICAL PLANT ON HUMAN HEALTH

Sh. M. Mukhiddinov

Master's student

Samarkand State University named after Sh. Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

E. E. Kabilov

Doctor of medical sciences, professor

Samarkand State University named after Sh. Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

E-mail: kobilov.1961@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: gases, waste, chemicals, lifestyle, diseases, human health, production, allergy.

Received: 12.12.22**Accepted:** 14.12.22**Published:** 16.12.22

Abstract: Allergic diseases, including: allergic bronchitis, allergic rhinitis, bronchial asthma, allergic skin rashes, are observed to increase by 2-3 times compared to other areas where residents live.

SAMARQAND KIMYO KOMBINATIDAN CHIQADIGAN ZARARLI GAZLARNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Sh. M. Muhiddinov

Magistrant

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

E. E. Qobilov

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

E-mail: kobilov.1961@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: gazlar, chiqindilar, kimyoviy moddalar, turmush-tarzi, kasalliklar, inson salomatligi, ishlab chiqarish, allergik.

Annotatsiya: Samarqand shahri kimyo kombinati atrofida joylashgan aholi orasida allergik kasalliklar shu jumladan: allergik bronxit, allergik rinit allergik, bronxial astma, terining allergik toshmalari boshqa aholi

**ВЛИЯНИЕ ВРЕДНЫХ ГАЗОВ, ВЫБРАСЫВАЕМЫХ САМАРКАНДСКИМ
ХИМИЧЕСКИМ КОМБИНАТОМ, НА ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА****Ш. М. Мухиддинов***студент магистратуры**Самаркандский государственный университет имени Ш. Рашидова**Самарканд, Узбекистан***Э. Э. Кабилов***доктор медицинских наук, профессор**Самаркандский государственный университет имени Ш. Рашидова**Самарканд, Узбекистан**E-mail: kobilov.1961@mail.ru***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: газы, отходы, химические вещества, образ жизни, болезни, здоровье человека, производство, аллергия.	Аннотация: Аллергические заболевания, в том числе: аллергический бронхит, аллергический ринит, бронхиальная астма, аллергические кожные высыпания, отмечают увеличение в 2-3 раза по сравнению с другими районами проживания жителей.
--	--

KIRISH

"Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga maxkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko'plar ushbu muammoga beparvolik bilan va ma'suliyatsizlik bilan munosabatda bo'linmoqda" deb yozgan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov. Inson hech qachon tabiatsiz yashay olmaydi, chunki u tabiatning ajralmas qismi hisoblanadi. Biz yashab turgan va bizni o'rab turgan olam xuddi onamiz kabi mehribon va jonkuyar. Quyoshning har zarrasida, tuproqning har jismida tabiatning bizga bo'lgan onadek mehribon taftini his qilamiz. O'zining har bir jabhasida inson uchun zarur bo'lgan minglab unsurlarni mujassam etgan. Ana shunday go'zal tabiatimiz bugungi kunga kelib qay ahvolga tushmoqda? Bunga kimlar sababchi?

ASOSIY QISM

Inson ehtiyoji uchun kimyo mahsulotlari shunchalik ko'p qo'llanilmoqdaki, yendilikda turmushimizni busiz tasavvur qila olmaymiz. Kimyo sanoati rang – barang kimyoviy moddalarni – kislotalar, ishqorlar, tuzlar, mineral o'g'itlar, zaharli ximikatlar, polimerlar, sintetik tolalar, erituvchilar, smolalar, bo'yoqlar, loklar, gugurt, kiriyuvishda ishlatiladigan poroshoklar, plastmassadan yasalgan xilma – xil ro'zg'or buyumlari, xo'jalik buyumlari, shuningdek sanoatimiz uchun asqotadigan ko'pdan – ko'p vositalarni ishlab chiqaradi.

E'tirof etish kerakki, kimyo sanoatidagi ishlab chiqarish texnologiyasida hali jiddiy kamchiliklar bor. Shuningdek transport vositalaridan chiqqan zaharli kimyoviy moddalar ham tashqi muhitni ifloslantirmoqda. Ulardan chiqqan zaharli chiqindilar tashqi muhitga salbiy ta'sir ko'rsatib, havoni, suvni, tuproqni ifloslantirib yubormoqda. Bu o'z navbatida kishilar sog'lig'iga ziyon yetkazmoqda, o'simliklar, hayvonlar turli kasalliklarga chalinib, halokatga uchramoqda. Kimyo mahsulotlarining ko'p ishlab chiqarilishi, ekologik muvozanatning buzilishiga sabab bo'layapti [1, 1-2 b].

Hozirgi vaqtda turli zavod va fabrikalarda 45 ming turga yaqin kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda va aholiga sotilmoqda, jahon bo'yicha 300 mln.tonnaga yaqin organik moddalar ishlab chiqarilib, ular yordamida milliondan ortiq buyumlar tayyorlanmoqda. Lekin ishlab chiqarishda foydalanilayotgan ushbu kimyoviy moddalar ma'lum miqdorda havo, suv va oziq-ovqatlar orqali inson tanasiga ham kelib tushmoqdaki, buning natijasida turli xil yuqumli kasalliklar yuzaga kelmoqda. Chunki ayrim kimyoviy moddalar zaharlilik xususiyatiga ega bo'lsa, ayrimlari allergenlik, konserogenlik (rak kasalligini keltirib chiqarish xususiyati), mutagenlik (naslga ta'sir etish xususiyati) va teratogenlik (chala yoki mayib-majruh tug'ilishni yuzaga keltirish xususiyati), fibrogenlik (tanadagi to'qimalar birikmasining ajralishi) xususiyatlariga egadir. Bunday kimyoviy moddalarga, ayniqsa, og'ir metallar (qo'rg'oshin, kadmiy, simob), noorganik gazlar (oltin gugurt ikki oksidi, is gazi, azot oksidi, ozon), kremniy ikki oksidi (DDT, xlorli vinil va boshqalar) misol bo'lishi mumkin. Ushbu kimyoviy moddalar alohida holda ham, aralashma holda ham inson sog'lig'i uchun juda xavfli hisoblanadi. Keyingi yillarda saraton kasalligining ko'payishi, turli xil kasalliklarning yangi turlarini vujudga kelishi, asosan, kimyoning ta'siridandir [2, 2-5 b].

Aniqlanishicha hozirgi paytda biosferada 70 ming xil yangi kimyoviy moddalar tarqalgan, qaysiki ular ilgari tabiatda uchramagan. Shundan 400 xili kishilar organizmidan topilgan. Tekshirilganida 100 kishidan 99 kishining tanasida bu yot kimyoviy moddalarning borligi ma'lum bo'lgan. Ayni paytda sayyoramizning biror burchagi yo'qki, har xil kimyoviy moddalar bilan ifloslanmagan bo'lsa.

Ma'lumki, o'tgan asrda va asrimizning o'rtalariga qadar qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi asosan ekologik (agrotexnik, mexanik, biologic metodlar asosida) usulida kurash olib borilgan. XX asrning 50 – yillardan keyin zararkunandalarga qarshi kurash borasida faqat kimyoviy usul joriy etila boshlandi. Dalalarda nuqul DDT, geksaxloran, merkaptofas kabi o'ta kuchli og'ular sepilaverdi. Kimyoviy preparatlarni ko'p qo'llayverish ekinzorlardagi barcha foydali hasharotlarni, ya'ni zararkunandalarning tabiiy kushandalari va o'simlik gullarini changlatuvchilarni qirib yuboradi. Oqibatda zararkunandalar ham kamaymaydi, hosildorlik ham oshmaydi. Bular natijasida inson hayotiga hayvon va o'simliklar dunyosiga katta

ziyon etkazildi, qishloq aholisi, ayniqsa, bolalar ommaviy xavfli kasalliklarga duchor bo'ldi. Bu kimyoviy moddalar o'sha davrda ta'qiqlab qo'yilmadi, aksincha bunga qarshi bo'lgan xaqguy mutaxassislar esa ta'qib ostiga olindi [3, 2-3 b].

Respublikamizni Toshkent, Samarqand Farg'ona, Bekobod, Navoiy, Angren, Ohangaron, Namangan kabi shaharlariga qurilgan kimyoviy zavodlardan atrof – muhit ifloslanib ketgan.

Ekologik muhitning salbiy tomonga o'zgarishi, sog'lom turmush tarziga rioya etmaslik va ovqatlanish tartibining o'zgarishi, yangi allergik kasalliklarni keltirib chiqarmoqda. Yangi allergenlarning paydo bo'lishi, stress, mehnat sharoitlari buzilishining oldini olish meditsina va ekologiya sohasidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ayniqsa kimyo kombinatida ishlaygan ishchilar orasida bu kasalliklar soni ham keskin oshib bormoqda. Samarqand kimyo kombinatidan chiqadigan zararli gazlar ya'ni oltingugurt 2-oksidi va azot oksidi bilan yuzaga keladi va kimyoviy jihatdan o'zgarib, nitrat va sulfatlar hosil qiladi. Bu o'z navbatida aholi orasida o'pkaga kirib borib, allergik kasalliklarini keltirib chiqaradi. Ushbu korxonada havo tozalagich moslamalarining sozligi hamda kerakli filtrlarni o'rnatish va takomillashtirish orqali kasalliklarni kamaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqish zarurligi va ahamiyatli bo'lib hisoblanadi [5, 809-811 b].

XULOSA

Mustaqilligimizning dastlabki davridanoq, atrof-muhitni kimyoviy moddalarning ifloslantirishidan saqlash chora – tadbirlari ko'rilmogda. Kelgusida korxonalarda ekologik jihatdan sog'lom texnologiya yaratish, transport vositalarni chiqindisiz ishlashini ta'minlash, har bir kimyoviy korxonaning ekologik pasporti bo'lishi, uning texnologiyasi hozirgi zamon talablariga javob berishi shart. Biz ana shu yo'l bilan shaharlarimiz va qishloqlarimi tashqi muhitning musaffo bo'lishiga erishamiz.

Shunday qilib, aytganda, sanoat korxonalari chiqindilarini kamaytirish uchun avvalambor hozirgi zamon talabiga mos keladigan ilg'or texnologiyalardan foydalanilgan holda chiqindisiz texnologiyadan foydalanishni keng yo'lga qo'yishimiz lozim. Zero, chiqindilar masalasi ekologiyadagi muhim muammolardan biri bo'lib, ularni qayta ishlash yoki gigiyenik talablar bo'yicha ishlov berilsa nafaqat iqtisodiy jihatdan foyda ko'ramiz, balki yerni, havoni suvni, oziq – ovqat mahsulotlarining ifloslanishi oldi olinardi, kishilar sog'lig'ini muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega bo'ladi va kelajak avlod uchun ham tabiatimizni o'z musaffoligini saqlagan holda yetkazib bergan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "2009-2028 yillar davrida O'zbekiston respublikasida qattiq mayishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" qarori, 2-5 betlar.

2. Z.Saidmurodova., A.Rajabov. Sanoat korxonalari keltirib chiqarayotgan ekologik xavf va ularning chiqindilaridan oqilona foydalanish istiqbollari. <http://oldconf.neasmo.org.ua/node/2614>
3. Sh.Shirinbayev., M.Safin. Atrof-muhitni muhofaza qilish. Samarqand, SamDCHTI, 2003. 77-80 betlar.
4. Z.I.Izzatullayev., G'.Dilmurodov. Tibbiy chiqindilar va ularning atrof-muhitga ta'sirini o'rganish (Samarqand shahri misolida). Multidisciplinary Scientific Journal 3 son mart 2022. 362-363 betlar.
5. R.Parpiyevna. Ekologiya – buzilishining inson salomatligiga ta'siri. Academic Research in educational Sciences ISSN:2181-1385 809-811 betlar.
6. Kimyoviy moddalarning tashqi muhitga ta'siri Buxoro davlat universiteti elektron kutubxonasi internet ma'lumotlari. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/>
7. <https://www.standart.uz/ru/news/view?id=1018> internet ma'lumotlari